

KONSTITUTSIYA: MENING HUQUQ VA ERKINLIKLARIM

Keldibekova Dinara Rustam qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq” fakulteti 1-kurs talabasi

e-pochta: keldibekovadinara316@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinish tarixi va paydo bo'lishiga asosiy sabab bo'lgan va Konstitutsiyamizning ajralmas qismi bo'lgan inson huquq va erkinliklarining batafsil bayonoti, mohiyati va ularning fuqarolar hayotidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, insonlar o'z huquqlarni qanday anglashi, ulardan qay darajada foydalanishi va bu jarayonda Konstitutsiyaning amaliy ahamiyati haqida shaxsiy fikr va kuzatishlar orqali ilmiy yondashuv bilan bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson huquqlari, kodeks, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, erkinliklar, majburiyatlar, davlat hokimiyati.*

CONSTITUTION: MY RIGHTS AND FREEDOM

Keldibekova Dinara Rustamovna

Student of the 1st year, Faculty of International Law

University of World Economy and Diplomacy

E-mail: keldibekovadinara316@gmail.com

Annotation: *This article explores the history behind the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the main reasons that led to its creation. It provides a detailed explanation of human rights and freedoms, which constitute an integral part of the Constitution, their essence, and their role in the*

lives of citizens. Furthermore, the article presents a scholarly analysis—supported by personal observations and reflections—on how individuals understand their rights, to what extent they exercise them, and the practical significance of the Constitution in this process.

Keywords: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, human rights, Code (of law), President of the Republic of Uzbekistan, freedoms, obligations, government.*

КОНСТИТУЦИЯ: МОИ ПРАВА И СВОБОДЫ

Келдибекова Динара Рустамовна

Студентка 1-го курса факультета международного права

Университет мировой экономики и дипломатии

Электронная почта: keldibekovadinara316@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматривается история принятия Конституции Республики Узбекистан и основные причины, послужившие основанием для её создания. Подробно раскрываются права и свободы человека как неотъемлемая часть Конституции, их сущность и роль в жизни граждан. Кроме того, статья представляет собой научный анализ, основанный на личных наблюдениях и размышлениях, о том, как люди осознают свои права, в какой степени они ими пользуются и какова практическая значимость Конституции в этом процессе.*

Ключевые слова: *Конституция Республики Узбекистан, права человека, Кодекс (законов), Президент Республики Узбекистан, свободы, обязанности, государственная власть.*

Har qanday taraqqiyparvar va madaniyatli jamiyat hayotida asosiy qonun bo'lgan Konstitutsiya muhim rol o'ynaydi. Chunki Konstitutsiyada davlat

tomonidan eng barqaror, doimiy huquqlar va jamiyat hayoti me'yorlari mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti aytganlaridek, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir." Konstitutsiya hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta yashashimizning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Konstitutsiya davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzulishini, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, jamiyat va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Qolgan barcha qonunlar ya'ni kodekslar, farmon, farmoyish va qarorlar Konstitutsiya asosida qabul qilinadi. Bu shuni anglatadiki, hech qaysi qonun davlatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyadan ustun bo'la olmaydi, va shuningdek, Konstitutsiya boshqa qonunlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun hayot baxsh etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilish loyihasi 1990-yil 20-iyundan boshlab olim va jamoat namoyondalari tomonidan ishlab chiqildi va umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Natijada, Konstitutsiya loyihasiga 3000 dan ortiq takliflar kelib tushdi va 80 dan ortiq o'zgartirishlar kiritilib, Oliy Kengash tomonidan XII chaqiriq, XI sessiyada 1992-yil 8-dekabrda tantanali ravishda qabul qilindi. Konstitutsiyaning asosiy mazmuni inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va jamiyat manfaatlarini e'tirof etishdan iborat. Bu esa shuni anglatadiki, inson huquqlari Konstitutsiyaning yuragini tashkil etadi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, biz Konstitutsiyani eng muhim va asosiy qonun ekanligini va usiz hech qanday qonun yuridik kuchga ega emasligini va eng muhimi, barcha fuqarolar va har qanday turdagi organlar, tashkilotlar unga so'zsiz bo'ysinishi kerakligini Konstitutsiyaning 15-moddasidan bilib olishimiz mumkin. Chunki bu moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligi

so'zsiz tan olinadi va davlat, uning organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiyaga muvofiq ish ko'radilar deya ta'kidlab o'tilgan. Hech qanday ixtiloflar yuzaga kelmasligi uchun Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zid keladigan va zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi hisoblanmish konstitutsiyamiz yaratilishining asosiy sababi bo'lgan inson huquq va erkinlikarining himoya qilinishga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, qonun fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va boshqa huquqlarini amalga oshirishini o'zining asosiy maqsadi qilib olgan. Misol uchun, insonlarning eng muhim huquqlaridan biri bo'lmish yashash huquqi Konstitutsiyaning 25-moddasida e'tirof etilgan bo'lib, har bir shaxs yashash huquqiga ega ekanligi aks ettirilgan. Konstitutsiya insonning hayotiga suiqasd qilishni eng og'ir jinoyat deb baholashi bilan mazkur huquqning naqadar muhim ekanligiga urg'u beradi. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar millatidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani, shuningdek, ular irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi ta'kidlanadi. Bu bilan Konstitutsiyamiz asosiy inson huquqlaridan biri bo'lgan tenglik va kamsitilmaslik huquqini himoya qiladi. Bu moddaning mavjud ekanligi juda ham ko'plab ko'ngilsizliklarning va adolatsizlikning yuzaga kelmasligiga zamin yaratadi. Misol uchun, bizning jamiyatimizda biror kimning tana rangi yoki millati boshqacha ekanligiga qarab kamsitish, yoki iqtisodiy taraflama ustunroq bo'lganlar ko'proq huquq va erkinliklarga ega ekanligi to'g'risidagi tushunchalar qat'iyan taqiqlanadi va shuningdek, bunday holatlar yuzaga kelgan holatda tegishli javobgarlik choralari

qonun tomonlama ko'riladi, bu masalaga axloqiy tomonlama ham qaraydigan bo'lsak, kimnidir har qanday holatda ham kamsitish, uning huquqlarini cheklab qo'yish va eng muhimi, unga ma'naviy zarar yetkazish o'zbeklarning mentalitetiga oldin, hozir ham va albatta, kelajakda ham to'g'ri kelmaydigan holat sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat inson huquq va erkinliklarini tartibga soladi, balki jamiyat va davlat hukumatida sodir bo'layotgan voqealarga ham oydinlik kiritadi. Bu esa shuni anglatadiki, butun davlat hududida bo'ladigan har bir jarayon asosiy qomusimiz orqali tartibga solinadi. Shuni misol qilib keltirish mumkinki, Konstitutsiyamizning 11-moddasida, O'zbekiston davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi va shuningdek, har bir hokimiyatning o'zining vakolatlari va qonun doirasida ish olib borishi, jamiyat manfaatini ko'zlab ish tutishini aynan Konstitutsiyamiz orqali bilib olishimiz mumkin. Bosh qomusimiz siyosiy partiyalar faoliyati, mahalliy davlat hokimiyati asoslari, saylov tizimi, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va tizimini qamrab oladi va tartibga soladi.

“Mening huquqlarim” aslida u qanday tushuncha va nimalardan iborat?

Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning huquq va erkinlari ham dunyoga keladi, va u har qanday vaqtda, har qanday joyda undan foydalana oladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, inson tug'ulmasligidan oldin ham huquqlarga ega bo'la oladi. Misol uchun, u dunyoga kelishidan oldin ham merosxo'r bo'la olish huquqiga ega. Men ham inson sifatida, jamiyatning a'zosi sifatida o'z huquq va erkinliklarimga egaman va ulardan foydalanaman. Avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, dunyoga kelgan ekanman, yashash va o'zim tug'ulgan vatanda

ulg'ayish mening eng muhim va hech kim taqiq sola olmaydigan huquqlarimdan biridir. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaning 33-moddasida keltirib o'tilgan, dunyo bo'yicha juda ham ko'plab muzokaralarga sabab bo'lgan fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi belgilab qo'yilgan. Meni O'zbekiston Respublikasining shaxsi sifatida bu huquqimdan foydalanishimga hech kim hech qachon cheklov va taqiqlar qo'ya olmaydi. Konstitutsiyamizning XIV bobiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, men, umuman olganda, barcha bolalar oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga egamiz. Shuningdek, bola o'zini himoya qilish, ism, otasim va familiya olish huquqlariga ham ega. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga oid barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikri hisobga olgan holda ota-ona tomonidan hal etiladi. Mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, va ma'naviy jihatdan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili- Bolalar Ombudsmani instituti tashkil etildi. Biz bundan bilib olishimiz mumkinki, bizning yurtimizda bolalarga qaratilgan e'tibor juda ham a'lo darajadadir. Mening huquqlarimning bir qismi hisoblangan, bosh qomusimizning 32-moddasi bo'lgan mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish va to'sqinliksiz qaytib kelish huquqidir. Mening bu huquqimdan foydalanishga noqonuniy ravishda hech kim xalaqit bera olmaydi. Misol uchun, mening chet elda o'qish yoki ishlash istagim bo'lgan holatda, qonunga bo'ysungan holda va albatta, ota-onam roziligi bilan bu huquqimdan erkin foydalanishim mumkin. Bu huquqlar buzilgan holatlarda davlat o'zining turli

funksiyalarini ishga solgan holda, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali himoya qiladi.

Xulosa qilib olganda, Konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari kafolatlangan. Bu hujjat nafaqat davlatning boshqaruv tizimini belgilaydi, balki har bir insonning erkin yashash huquqini ham himoya qiladi. Men uchun Konstitutsiya – bu mening shaxsiy huquqlarimni, imkoniyatlarimni va mas'uliyatlarimni ta'minlovchi ishonchli kafolatdir. Konstitutsiya mening huquqlarim va burchlarimning mezonidir. U bizga nafaqat erkinlik, balki tinch va adolatli hayot kechirish uchun mustahkam poydevor beradi. Shu sababli, Konstitutsiya qoidalarini bilish va ularga amal qilish har birimizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G.M. Tansikbayeva, V.A. Kostetskiy, Toshkent – 2019. Konstitutsiyaviy huquq asoslari.

2.<http://lex.uz/docs/-6445145> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

3.<http://lex.uz/ru/docs/-5570490> Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.